

FASOL NAVLARINING BO‘YINING BALANDLIGI

**JANGIROVA OZODA ROZOKOVNA
RAIMQULOVA MAFTUNA MASHRABOVNA**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand viloyati sharoitida yetishtirilgan fasol navlarining bo‘yining balandligi bo‘yicha olingam ma’lumotlar keltirilgan. Eng baland bo‘yli o‘simpliklar har ikkala navda ham makro‘g‘itlar fonida Sea Fun qo‘llanilganda kuzatildi.

Kalit so‘zlar: Fasol, navlar, yetishtirish, bo‘yining balandligi.

Fasol qimmatli oziq-ovqat ekini bo‘lib, dukkakli-don ekinlar orasida ekin maydoni bo‘yicha u jahon qishloq xo‘jaligida soyadan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Fasol doni tarkibida 33% gacha protein, 50-60 % kraxmal, 5-8 % kletchatka mavjud. Singdiruvchanlik nuqtai nazaridan fasol oqsili go‘sht va baliq oqsillarining hazm bo‘lishiga yaqinlashadi (86-90 %). Yashil holatda fasol ko‘p miqdorda vitaminlarni o‘z ichiga oladi va ajoyib ta’mga ega. Fasol konserva va kolbasa ishlab chiqarishda, non pishirishda va xalq tabobatida keng qo‘llaniladi [1].

Fasolning parhezlik qiymati alohida ahamiyatga ega. Kaliyning nisbatan yuqori miqdori va shu bilan birga, natriyning past miqdori siyidik haydash (diuretik) ta’sirga ega va yurak faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi. Fasol qandli diabet bilan xastalangan bemorlar qonida shakar darajasini tartibga solishga qodir. Fasol doni tarkibidagi arginin insulinga o‘xhash ta’sirga ega. Glyukokinin qonning shakar darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, xalq tabobatida fasol qaynatmasi buyrak kasalliklari, yuqori qon bosimi, revmatizm uchun ishlatalidi. Nonga fasolni qo‘sish bilan u lizinga boyiydi va bu bolalar uchun foydalidir [2].

Dog‘istonning Terek-Sulak viloyatining sug‘oriladigan och tusli kashtan tuproqlarida burchoq navlarni baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarida sug‘orish rejimi ChDNS ga nisbatan 80% bo‘lgan va urug‘larni ekishdan oldin Albit regulyatori bilan ishlov berilgan variantda **Racheyka, Mramornaya** navlaridan yetarli darajada yuqori mahsulorligiga erishilgan [3].

O‘simpliklar rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri ularning o‘sishidir. Fasol navlarining o‘sishi va rivojlanishi turlicha sodir bo‘ladi va bu ularning biologik xususiyatlari va atrof-muhit sharoitlariga bog‘liq. Ekish muddatlari ta’sirida o‘simpliklarning balandligi turlicha bo‘ladi [7].

O‘simplikning balandligi eng ishonchli va oson o‘lchanadigan xususiyatlardan biridir [6], bu o‘simpliklar raqobatida muhim rol o‘ynaydi [4]. Baland bo‘yli o‘simpliklar nafaqat yorug‘lik uchun kurashda raqobatdosh ustunlikka ega bo‘ladi, balki urug‘larni samaraliroq changlatadi va tarqatadi [5].

Samarqand viloyatining sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlari sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlar tahlilining ko‘rsatishicha, unib chiqish – gullash davrida, nav xususiyatlaridan qat’i nazar, fasol o‘simliklari bo‘yining balandligi ko‘proq tashqi muhit sharoitlariga, ya’ni o‘stirish sharoitlariga bog‘liq holda o‘zgardi. Bu davrda o‘simliklarning o‘sish dinamikasi ham yetishtirish usullariga (makro- va mikroo‘g‘itlar), ham navga bog‘liqligi qayd etildi.

O‘simlikning 5-6 barglik davridagi bo‘yi variantlar bo‘yicha Ravot navida 10,7-11,7 sm, Mahsuldor navida 10,9-12,4 sm ni tashkil etib, Mahsuldor navi Ravot naviga qaraganda bo‘yi biroz balandligi aniqlandi, bundan tashqari, o‘simlikning bo‘yi qo‘llanilgan makro- va mikroo‘g‘itlar ta’sirida ham o‘zgarishga uchraganligi ma’lum bo‘ldi. Masalan, ushbu davrda Ravot navi o‘simliklarining bo‘yi nazorat-o‘g‘itsiz variantda 10,7 sm bo‘lgan bo‘lsa, N30P60K60 – fon variantda 11,4 sm va Fon+Sea Fun variantida 11,7 sm bo‘lganligi aniqlandi. Analogik holat Mahsuldor navida ham kuzatildi (1.1-jadval).

1.1-jadval


Fasol navlari bo‘yining balandligiga makro- va mikroo‘g‘itlarning ta’siri

t/r	Navlар	Makro- va mikroo‘g‘itlar	O‘simlikning bo‘yi, sm				
			5-6 barg	shox- lanish	gullas h	dukka k shakl- lanish	Pishish
1	Rovot	Nazorat-o‘g‘itsiz	10,7	30,2	50,4	54,6	58,3
2		N30P60K60 – fon	11,4	32,2	53,2	60,2	62,4
3		Fon+Nutri Power	11,4	31,6	57,5	65,6	68,1
4		Fon+Sea Fun	11,7	32,3	58,5	67,6	70,3
5	Mahsuldor	Nazorat-o‘g‘itsiz	10,9	31,3	52,7	56,7	60,3
6		N30P60K60 – fon	11,8	34,7	58,1	63,5	65,4
7		Fon+Nutri Power	12	34,6	60,3	67,8	70,5
8		Fon+Sea Fun	12,4	35,4	61,8	69,6	72,7

Shoxlanish davrida o‘tkazilgan biometrik o‘lchashlarda o‘simliklarning bo‘yi variantlar bo‘yicha 30,2-35,4 sm ni tashkil etganligi aniqlandi. Ravot navi nazorat-o‘g‘itsiz variantda o‘stirilganda o‘simlik bo‘yi 30,2 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, mineral

o‘g‘itlar ta’sirida 2 sm, mineral o‘g‘itlar fonida Nutri Power qo‘llanilgan variantda 1,4 sm va mineral o‘g‘itlar fonida Sea Fun qo‘llanilgan variantda 2,1 sm ga baland bo‘lishi ta’minlanganligi aniqlandi. Ushbu holat Mahsuldor navida yuqoridagiga mos ravishda 31,3 sm; 3,4 sm; 3,3 va 4,1 sm ni tashkil etib, Mahsuldor navi Ravot naviga qaraganda baland bo‘yli bo‘lishi qayd etildi.

Ushbu davrda o‘simgiliklari balandligi navlar kesimida variantlararo taqqoslanganda e’tiborga loyiq natijalar qayd etilganligini ta’kidlash zarur.



1.1-rasm. Fasol navlari bo‘yining balandligiga makro- va mikroo‘g‘itlarning ta’siri, sm (pishish davrida)

Nazorat-o‘g‘itsiz variantda o‘stirilgan Ravot navida o‘simgilik bo‘yi 30,2 sm ni tashkil etgan bo‘lsa, Mahsuldor navida 31,3 sm yoki Ravot navidagiga qaraganda 1,1 sm baland bo‘lganligi, makroo‘g‘itlar qo‘llanilgan (N30P60K60 – fon) variantda yuqoridagiga mos ravishda 32,2; 34,7 yoki 2,5 sm; makroo‘g‘itlar fonida Nutri Power qo‘llanilgan variantda tegishlicha 31,6; 34,6 yoki 3,0 sm; makaroo‘g‘itlar fonida Sea Fun qo‘llanilgan variantda esa mutanosib ravishda 32,3; 35,4 yoki 3,1 sm baland bo‘lganligi aniqlandi.

Gullash davrida o‘tkazilgan biometrik o‘lchashlarda o‘simgiliklarning bo‘yi Ravot navida 50,4-58,5 sm, Mahsuldor navida 52,7-61,8 sm ni tashkil etib, shoxlanish davridagi umumiy tendensiya saqlanib qoldi. Mazkur davrda ham Mahsuldor navi Ravot naviga qaraganda baland bo‘yli bo‘lishi bilan birga, makro- va mikroo‘g‘itlar, ayniqsa Fon+Sea Fun qo‘llanilgan variantlarda o‘simgiliklarning baland bo‘lishi ta’mindandi.

Keyingi rivojlanish davrlarida o‘simgilikning bo‘yiga o‘sishida sezilarli darajada o‘zgarish kuzatilmadi. Gullash davridagi o‘simgilik bo‘yiga qaraganda dukkak shakllanish davrida o‘simgiliklarning bo‘yi o‘rtacha 4-9 sm o‘sganligi aniqlandi.

Ushbu davrda o'simliklarning bo'yi Ravot navida 54,6-67,6 sm, Mahsuldor navida esa 56,7-69,6 sm ni tashkil etib, dastlabki o'lchashlardagi umumiy tendensiya saqlanib qoldi.

O'simlikning pishish davrida o'tkazilgan tahlillarda o'simlik bo'yi o'r ganilgan variantlar bo'yicha 58,3-72,7 sm ni tashkil etib, eng baland bo'yli o'simliklar makroo'g'itlar fonida Sea Fun qo'llanilgan variantda kuzatildi (1.1-rasm).

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, Samarqand viloyatining sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlari sharoitida fasol navlarini yetishtirishda o'simliklarning bo'yi bevosita nav xususiyati bo'lishi bilan birga, yetishtirish texnologiyasi, jumladan makro- va mikroo'g'itlar ta'sirida sezilarli darajada o'zgaradi. Eng baland bo'yli o'simliklar har ikkala navda ham makroo'g'itlar fonida Sea Fun qo'llanilganda kuzatilib, gullahgacha bo'lgan davrda o'simliklarning jadal o'sishi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Аверчев О.В., Татаров О.С. Агроекологічне обґрунтування вирощування квасолі овочевої на краплинному зрошенні в умовах Півдня України // Вісник Уманського національного університету садівництва. 2017. -№1, -С. 33-37.
2. Алемсетова Г.К. Урожайность сорта гороха посевного Фокор в условиях Приморско-Каспийской подпровинции Дагестана в зависимости от применяемых регуляторов роста и режима орошения // Известия Кабардино-Балкарского научного центра РАН 2022 № 1 (105). –С. 74-81. DOI: 10.35330/1991-6639-2022-1-105-74-81.
3. Batirova M. R., 2022. 116–123-b.
4. Onipchenko, 2014
5. Osada, 2011
6. Moles va boshq., 2009
7. P.V.Tixonchuk, A.A.Muratov, 2008